II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yil yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda -YAHM) hajmi joriy narxlarda 17 222,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-iyun bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil yanvar-iyundagi narxlarga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo‘shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish
(yanvar-iyun oylarida)

		Mlrd. so‘m		O‘sish sur‘atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil	2022- yil	
	I. YAHM	**14 227,5**	**17 222,9**	**106,6**
	shu jumladan:			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	13 832,4	16 662,7	106,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	395,1	560,2	112,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**13 832,4**	**16 662,7**	**106,4**
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**4 730,1**	**5 572,9**	**103,4**
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**3 202,7**	**3 960,1**	**109,0**
	sanoat	2 128,6	2 677,6	108,6
	qurilish	1 074,1	1 282,5	109,8
	Xizmatlar	**5 899,6**	**7 129,7**	**107,4**
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 125,3	1 479,3	117,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	789,6	943,5	113,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 984,7	4 706,9	103,4

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi

(% da)

2021- yil yanvar-iyun



2022- yil yanvar-iyun



Yalpi hududiy mahsulotda 2022- yil yanvar-iyun oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 180 234,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 11 665,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasida 156 942,2 mlrd. so‘mni, Namangan viloyatida esa 9 902,6 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2022- yil yanvar-iyun oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 50,5 % (2021- yil yanvar-iyun 52,9 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 70,0 % (2020- yil yanvar-iyun 71,6 %) ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 70,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyun oyida – 71,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi

(ming so‘m)

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Yanvar-iyun	4 939,4	5 847,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHMni ishlab chiqarish

(2022- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so‘m		Respublikada tutgan ulushi, % da
	O‘zbekiston Respublikasi	Namangan viloyati	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**389 631,2**	**17 222,9**	**4,4**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	356 897,7	16 662,7	4,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	32 733,5	560,2	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**356 897,7**	**16 662,7**	**4,7**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**76 198,0**	**5 572,9**	**7,3**
Sanoat *(qurilish sohasini qo‘shgan holda)*	**129 997,5**	**3 960,1**	**3,0**
sanoat	104 181,0	2 677,6	2,6
qurilish	25 816,5	1 282,5	5,0
Xizmatlar	**150 702,2**	**7 129,7**	**4,7**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	26 799,8	1 479,3	5,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	26 038,6	943,5	3,6
boshqa xizmatlar	97 863,8	4 706,9	4,8

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 33,4 %), sanoatda – 108,6 % (16,1 %), qurilishda – 109,8 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 107,4 % ni (42,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 117,2 % (8,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa tarmog‘ida 113,7 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (28,2 %) iborat bo‘ldi.

2021-2022- yil yanvar-iyunda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilga nisbatan % da)